O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT
UNIVERSITETI

MINISTRY OF HEALTH OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE MEDICAL
UNIVERSITY

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2 2. Farobiy str. Tashkent 100109

Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tashmeduni.uz, e-mail: info@tashmeduni.uz, tashmeduni@exat.uz

18 may 2026 yil. **8451-son**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashi yig‘ilishining 10-son BAYONI

Toshkent shahar 2026-yil 29-aprel

Raislik qiluvchi: **Sh.A. Boymuradov** - Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori, professor

Qatnashdilar: Ilmiy kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

K U N T A R T I B I :

1. Toshkent davlat tibbiyot universitetining Termiz va Chirchiq filiallari direktorlarining hisoboti.

Ma’ruzachilar: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

2.Bolalar, o‘smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasining o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy va ma’naviy faoliyati bo‘yicha hisoboti.

Ma’ruzachi: Bolalar, o‘smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasi mudiri N.J.Ermatov.

3.Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma’ruzachi: Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertasiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash.

Ma’ruzachilar: O‘quv-metodik ta’minot bo‘limi boshlig‘i J.A.Anvarov, Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul ma’qullandi.

QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi “Toshkent davlat tibbiyot universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) Termiz va Chirchiq filiallari direktorlarining hisoboti” yuzasidan Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov va Chirchiq filiali direktori v.v.b. B.Q.Nurmatovning ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin (ma’ruzalar matnda keltirilgan).

1.1. Universitetning Termiz va Chirchiq fıliallarining to‘1iq transformatsiyasini amalga oshirish jarayonida moddiy-texnik bazalarini takomillashtirishga qaratilgan, jumladan klinik fanlar uchun simulyatsiya jihozlarini (kompyuter, interaktiv doska va boshqa simulyatsion ta’1imga oid asbob-uskunalari), umum-biologik fanlar uchun o‘quv laboratoriyalari jihozlarini harid qilish bo‘yicha takliflar kiritilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.2. Universitetning Termiz va Chirchiq fıliallarida transformatsiya jarayonlarida talabalarni qabul kvotalari masalalari, jumladan xorijiy talabalarni qabul qilish kvotalari qayta ko‘rib chiqilishi bo‘yicha takliflar kiritilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.3. Universitet filiallarida sifatli ta’lim tizimini kuchaytirish maqsadida xorijiy nufuzli Oliy ta’lim muassasalar tajribasi o‘rganilishi, solishtirilishi va uning natijasida barcha mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etilishi va raqamlashtirilishi, baholash tizimi, talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari malakaviy kompetensiyaga mosligi, professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni olib borilishi bo‘yicha kerakli xulosalar olib amaliyotga tadbiq etilishi ta’minlansin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.4. Talabalarga berilayotgan dars jarayonlarini sifatli tashkil qilish, ta’lim oluvchilarni kasbga nisbatan qiziqishini orttirish, kelajakda kasbiy kompetensiyalarni to‘liq o‘zlashtirishlari uchun Universitetning salohiyatli professor-o‘qituvchilar ishtirokida masofadan ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tkazilishi kuchaytirilsin.

Mas’ul: O‘quv-uslubiy departamenti boshlig‘i F.X.Azizova, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.5. Universitet filiallari professor-o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish maqsadida Universitet kafedralarida mutaxassisliklar kesimida maqsadli o‘qitish va malaka oshirish bo‘yicha ishlar kuchaytirilishi ta’minlansin.

Mas’ul: O‘quv-uslubiy departamenti boshlig‘i F.X.Azizova, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.6. Termiz va Chirchiq fıliallarining rivojlanish strategiyasinining amalga oshirish jarayonida Universitet kafedralarining professor-o‘qituvchilari bilan hamda xorijning nufuzli oliy tibbiy ta’1im muassasalari va markazlari bilan hamkorlik aloqalari ishlab chiqilgan integratsiya dasturlari asosida olib borilishi ta’kidlab o‘tilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: 2025-2026-o‘quv yili davomida.

1.7. Filiallar professor-o‘qituvchilarining o‘quv va ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy markazlar muassasalari yetakchi olimlari shartnoma asosida o‘quv jarayoniga jalb etilishi ta'minlansin, shuningdek, fillial o‘qituvchilari xorijda o‘z malakalarini oshirishlari bo‘yicha ishlar hamda universitet bilan hamkorlikda biriktirilgan kafedralar tomonidan tizimli amaliy-uslubiy va ilmiy-metodik yordam ko‘rsatilishi jadallashtirilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.8. Filiallarda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida universitet tasarrufidagi ilmiy laboratoriyalardan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilsin, ilmiy tadqiqotlar o‘zaro integratsiyalashgan holda tashkil etilsin hamda qo‘shma ilmiy loyihalar va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish bo‘yicha ishlar olib borilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.9. Universitet filiallarining kutubxonalaridagi o‘quv va elektron adabiyotlarni ko‘paytirish, elektron manbalardan foydalanish, raqamli ta’lim texnologiyalarni rivojlantirilish, shuningdek Universitetning elektron kutubxonalaridan foydalanish jarayonlari bo‘yicha ishlar kuchaytirilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.10. Filiallarda o‘quv-uslubiy adabiyotlar sifatini oshirish maqsadida Universitet professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlikda qo‘shma mualliflikda darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratilishi, ularni ekspertizadan o‘tkazilishi va tasdiqlanishi jarayonlari tizimli tartibda tashkil etilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.11. Universitet filiallarining pedagoglaridan xorijiy tajribaga asoslangan holda ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni hamda dars jarayonlarida axborot

kommunikatsion hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng joriy qilinishi va qo‘llanishi talab etilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.12. Universitet filiallari professor-o‘qituvchilarining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish maqsadida pedagoglarni shahsiy rejalari bajarilishi natijalari bo‘yicha rag‘batlantirish yoki chora ko‘rish ishlari yo‘lga qo‘yilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.13. Universitet filiallarining har bir fakultet va ilmiy kengashlarida barcha kafedralar va professor – o‘qituvchilar kesimida o‘quv hamda ilmiy salohiyatlari, jumladan ilmiy va o‘quv mahsulotlari monitoringi, o‘quv jarayonining sifat va o‘zlashtirish darajasi, bitiruvchilar masalalari muhokamadan o‘tkazilishi va tegishli xulosalar qilinishi ta’minlansin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.14. Termiz hamda Chirchiq filiallari ilmiy salohiyatini yaxshilash, ta’lim jarayonini yanada sifatli tashkil qilish maqsadida kafedralarda faoliyat yuritayotgan ilmiy darajasiz xodimlar ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etilsin, bunda Universitetda faoliyat yuritayotgan tegishli sohaning yetakchi professor-o‘qituvchilariga “Ustoz-shogird” tizimi bo‘yicha biriktirilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.15. Universitet filiallarida tahsil olayotgan doktorantlar, magistr va klinik ordinator - talabalar uchun barcha shart-sharoitlar tubdan yangilanishi amalga oshirilsin, shuningdek, barcha professor – o‘qituvchilarning ilmiy mavzulari tasdiqlanishi ta’minlansin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.16. Filiallarning professor-o‘qituvchilari tomonidan Respublika ilmiy loyihalar tanlovlarida ishtirok etishi va ilmiy loyihalar (grant) ga ega bo‘lishi hamda xo‘jalik shartnomalar asosida ishlar olib borilishi kuchaytirilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.17. Filiallar professor-o‘qituvchilari tomonidan xalqaro yuqori reytingli jurnallarda maqolalar sonini oshirish maqsadida Universitet xodimlari bilan hamkorlikda

qo‘shma ilmiy tadqiqotlar olib borilishi, grant loyihalarida samarali ishtirok etishlari, shuningdek doimiy seminar va treninglarni tashkil etilishi yo‘lga qo‘yilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.18. Filiallarda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Universitetning mavjud aloqalaridan samarali foydalanish, qo‘shma ta’lim dasturlari, akademik mobillik hamda ilmiy-amaliy hamkorlik loyihalarini kengaytirish bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.19. Xalqaro konferensiyalarni tashkil etishni kengaytirish maqsadida Universitet bilan birgalikda muntazam xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilishi, xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarni jalb etilishi hamda professor-o‘qituvchilar va yosh olimlarning faol ishtiroki ta’minlansin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

1.20. Universitet filiallarida iqtidorli talabalarni saralash mezonlari bo‘yicha aniqlash, tarbiyalash va ular bilan maqsadli (nomdor stipendiyalarga tayyorlash, magistratura, ordinatura, doktoranturaga jalb etish) ishlash bo‘yicha ishlar muntazam olib borilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov, Chirchiq filiali direktori G.N.Sultanov.

Muddat: Doimiy.

2. Kun tartibining keyingi masalasi “Bolalar, o‘smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasining o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy va ma’naviy faoliyati bo‘yicha hisoboti” yuzasidan Bolalar, o‘smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasi mudiri N.J Ermatovning ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

3. Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo‘yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova professor ilmiy unvoniga talabgorlar: 13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi bo‘yicha 1-son o‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi mudiri R.M.Abdullaeva, 14.00.25 - Klinik-laborator va funsional diagnostika ixtisosligi bo‘yicha 1-son tibbiy va biologik kimyo kafedrasi professori N.X.Muxamedova, 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya ixtisosligi bo‘yicha Normal va patologik fiziologiya kafedrasi professori S.B.Azimova, 14.00.04 - Otorinolaringologiya ixtisosligi bo‘yicha Otorinolaringologiya kafedrasi professori G.S.Xaydarova, 14.00.27 - Xirurgiya ixtisosligi bo‘yicha 1-sonli fakultet va gospital jarrohlik kafedrasi professori O.T.Sattarov; dotsent ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.21 - Stomatologiya ixtisosligi bo‘yicha Yuz-jag jarrohligi va stomatologiya kafedrasi dotsenti B.K.Narmurotov, 14.00.04 - Otorinolaringologiya ixtisosligi bo‘yicha Otorinolaringologiya kafedrasi dotsenti N.A.Axundjanov, 14.00.03 -

Endokrinologiya ixtisosligi bo‘yicha Ichki kasalliklar, endokrinologiya kafedrasi dotsenti N.X.Yuldasheva nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma’lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. So‘ng saylov o‘tkazildi (saylov hay’ati a’zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash” bo‘yicha O‘quv-metodik ta’minot bo‘limi boshlig‘i J.A.Anvarov va Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi. (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. Turli masalalar bo‘yicha Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A. Bobomuratov, Moliya-iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektori N.L.Asqarov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, Magistratura va klinik ordinatura bo‘limi boshlig‘i A.A.Imamov so‘zga chiqdilar.

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq grant loyihasi uchun ajratilgan mablag‘ning besh foizi loyiha yakunidagi natijalar ekspertizadan o‘tkazilib buyurtmachi tomonidan qabul qilganidan so‘ng ajratilishi belgilangan. Toshkent davlat tibbiyot Universitetida bajarilgan “Daun sindromi bo‘lgan bolalarda intelellektual, kognitiv buzilishlarni tashxislash usullarini va ularni boqichma-bosqich davolash dasturini ishlab chiqish” (Loyiha rahbari t.f.n. Salixova S.M.) amaliy loyihasi muvaffaqiyatli yakunlanib, belgilangan maqsadlarga erishilganligi hamda vazifalar samarali bajarilganligi ta’kidlab o‘tilsin.

Innovatsion rivojlanish agentligi 2026-yil 12-fevraldagi 01-09/71-son xati bilan mazkur amaliy loyiha samarali bajarilganligi yakunida loyiha doirasidagi ajratilgan 5% miqdori 21 617 000,0 (Yigirma bir million Olti yuz o‘n yeti ming) so‘m, (Ijtimoiy to‘lovni (12%) hisobga olgan holda) qoldiq mablag‘lar ajratilganligini ma’lum qildi. Ushbu mablag‘lar hisobidan loyiha rahbari tavsiyasiga ko‘ra loyihada faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish choralari ko‘rilsin.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq grant loyihasi uchun ajratilgan mablag‘ning besh foizi loyiha yakunidagi natijalar ekspertizadan o‘tkazilib buyurtmachi tomonidan qabul qilganidan so‘ng ajratilishi belgilangan. Toshkent davlat tibbiyot Universitetida bajarilgan “Tishlarni tiklash jarayoida kompozitsion materialni isitish uchun yangi stomatologik qurilma yaratish” (Loyiha rahbari Melkumyan T.B.) amaliy loyihasi muvaffaqiyatli yakunlanib, belgilangan maqsadlarga erishilganligi hamda vazifalar samarali bajarilganligi ta’kidlab o‘tilsin.

Innovatsion rivojlanish agentligi 2026-yil 12-fevraldagi 01-09/71-son xati bilan mazkur amaliy loyiha samarali bajarilganligi yakunida loyiha doirasidagi ajratilgan 5% miqdori 50 611 600,0 (ellik million olti yuz o‘n bir ming olti yuz) so‘m, (Ijtimoiy to‘lovni (12%) hisobga olgan holda) qoldiq mablag‘lar ajratilganligini ma’lum qildi. Ushbu

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: IT50762775

mablag‘lar hisobidan loyiha rahbari tavsiyasiga ko‘ra loyihada faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish choralari ko‘rilsin.

5.3. O‘zbekiston Respbulikasi Prezidentining 2025-yil 22-apreldagi PQ-149-son "Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti va Toshkent davlat stomatologiya instituti negizida Toshkent davlat tibbiyot universitetini tashkil etilganligi hamda Universitet ushbu institutlarning barcha huquq va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son "Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida" qaroriga muvofiq Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘z mablag‘lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilganligini inobatga olgan holda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishda, jumladan Gippokamp dasturini yaratishda va amaliyotga tatbiq etishda faollik ko‘rsatgan 2-son Davolash fakulteti 6 kurs bitiruvchisi Baxromov Abduraxmon Universitetning mablag‘lari hisobiga magistraturaga qabul qilinishiga tavsiya etish bo'yicha Ilmiy kengash qarori Universitet uchun majburiyat etib qabul qilinsin hamda magistraturada o'qish xarajatlari universitetning rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplansin.

5.4. Tibbiyot sohasidagi yosh olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy innovatsion tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishga, bu g‘oyalarning ilmiy amaliy ahamiyatini yanada oshirishga va ularni keng tibbiyot jamoatchiligiga yetkazish ishlarini samaradorligini oshirish maqsadida: «Yosh olimlar tibbiyot jurnali» (rus tilida «Медицинский журнал молодых ученых», ingliz tilida «Medical Journal of Young Scientists») tibbiy ilmiy jurnalining yangilangan tahrir hay’ati va tahrir kengashi a’zolari qaytadan 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-59-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Universitet talabalari tomonidan ishlab chiqilgan taomlaridagi makronutriyentlarni hisoblash va kunlik ratsionni tuzuvchi “Nutri.Uz” hamda fundamental fanlarni o‘ganishga mo‘ljallangan “AnaSM” startap loyihalari Universitetning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilsin.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi.Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.

Rektor **Sh.A. Boymuradov**